

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53408-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**SOLIQ TARIXI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Shennaev X.,
k.o'q. Isamuxamedova S.

Taqrizchilar: dots. Xolbekov A.,
dots. Almardonov M.

"Soliq tarixi" fani soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari, rivojlanish bosqichlari, mamlakatlarimiz hududida soliqlarni rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, soliqlarga bo'lgan ilmiy yondoshuvlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, davlatchilikning turli shakllarida amalda bo'lgan soliqlar va ularning xususiyatlari, mustaqillik va soliq sohasidagi islohotlar kabi masalalarni qamrab olgan. Fanning muhim vazifasi sifatida mamlakatimizda barqaror soliq tizimini shakllantirishda soliqlar tarixining ahamiyati, xususiyatlari keng ko'lamda o'rganiladi.

Предмет и задачи курса "История налогов". Факторы, способствующие появлению налоговых отношений в странах Западной Европы в XIV веке. Особенности развития налогов в странах Востока. Развитие налогов в мире в начале XX века. Создание государственных налоговой системы в России и Туркестане после событий 1917 года. История развития налогов в период 1930-1980 г.г. в бывшем союзе. Развал советского государства в 1991 г. и его влияние на налоговой системы Ўзбекистана. Развитие налоговой системы в Ўзбекистане за период 1995-2002 г.г.

Subject and tasks of a rate "A History of taxes". The factors promoting occurrence of the taxes attitudes(relations) in the countries of Western Europe in XIV century. Features of development of taxation in the countries of East. Development of tax system in the world in the beginning XX of century. Creation of state taxation.

In Russia and Turkestan after events of 1917. A history of development of tax system during 1930-1980 y. In former union. Disorder of the Soviet state in 1991 and his(its) influence on systems of insurance of Uzbekistan. Development of tax system in Uzbekistan the period 1995-2002 y.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashidamuhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Soliq tarixi" fanining asosiy maqsadi va vazifasi vatanimizda soliq munosabatlarini vujudga kelishi, uni kishilik jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida rivojlanishini o'rganishdan iboratdir.

Oliy o'quv yurtlari talabalarida soliq munosabatlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq bilimlarini shakllantirish, shuningdek, bu bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish "Soliq tarixi" fanining asosiy vazifasini tashkil etadi.

Bu fan talabalardan iqtisodiy tarixiy bilimlar asosini, shu fanlar bilan aloqasini hamda bu fanni o'rganishda slaydlarda ishlash ko'nikmalari bo'lishini talab qiladi.

"Soliq tapixi" fani "O'zbekistan tarixi", "Moliya tarixi", "Chet mamlakatlar soliq tizimi" kabi fanlar bilan bevosita bog'liq.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma malakalarga talablar

"Soliq tarixi" fani bo'yicha kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish "Soliq tarixi" fanidan "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va o'quvlarini shakllantirish seminar va amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan munozaralarda talabalarning faol eshtiroki ta'minlanishi talab etiladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Talabalar o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzularidan tegishli tartibda tanlab olib, bu mavzular bo'yicha referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashlari hamda amaliy mashg'ulotni olib boruvchi professor-o'qituvchi nazoratida tayyorlagan ishlari yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tishlari lozim. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularidagi yulduzcha bilan ajratib ko'rsatilgan kichik mavzular bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 81, shu jumladan, 36-ma'ruza, 18-amaliy, 27-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. "Soliq tarixi" fani bo'yicha olingan bilimlar talabalarni amaliy faoliyatda uchraydigan muammolarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib, kasbiy malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Soliq tarixi" fanidan talabalarning bilimni baholash ikki marta oraliq, ikki marta joriy, hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Soliq tarixi" fanini o'qitishda kompyuterlardan, audio va video jihozlardan, dioproektor va kodoskoplardan, shuningdek, dars davomida turli jadvallar hamda slaydlardan foydalanish talab etiladi.

2. FAN DASTURI

"Soliq tarixi" fani bo'yicha o'qitiladigan mavzular

"Soliq tarixi" fanining predmeti va vazifalari

"Soliq tarixi" fanining predmeti o'rganish usullari va vazifalari. "Soliq tarixi" fanini o'rganishdan maqsad. Fanning boshqa ijtimoiy gumanitar va iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi. "Soliq tarixi" fanini ixtisoslik fan sifatida o'rganishning zaruriy omillari. Fanning ob'ektini o'rganishga xizmat qiluvchi manbaalar.

Soliqlarning paydo bo'lishi

Soliqlarni paydo bo'lishiga turtki bo'lgan asosiy sabablar: davlatchilikning shakllanishi, davlat xarajatlarining oshib borishi, jamiyat taraqqiyoti bosqichlari almashinuvi. *Soliqlarning ilk ko'rinishlari, undirish usullari, shakllari, belgilari, jamiyat rivojlanishiga ta'siri. Soliqlar paydo bo'lishining mamlakatimiz hududidagi xususiyatlari.*

O'rta asrlargacha bo'lgan davrda soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi (V asrgacha)

Vatanimiz hududida ilk davlatchilik tuzilmalarining paydo bo'lishi va ulardagi soliqlar. Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatlar: Salavkiylar, Kushon, Parfiya davlatlari, Yunon-Baqtriya, qadimgi Farg'ona podsholiklari davridagi soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi. *Soliqlarni ushbu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

O'rta asrlar davrida soliqlarning rivojlanishi (V-VII acplap)

Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va bu jarayonda soliqlarning rivojlanishidagi xususiyatlari. Eftalitlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida soliqlar. *Turk hoqonligida soliqlar.*

Arablar istilosi davrida soliqlarning rivojlanishi (VII-VIII asrlar)

Qur'oni Karimda iqtisodiy ko'rsatmalar. Mamlakatimiz hududining Arab istilochilari tomonidan zabt etilishi va soliqlar borasidagi o'zgarishlar. Soliqlarning mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga ta'siri. *Soliqlarning islom dinini targ'ib etishdagi roli.*

Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va soliqlarning rivojlanishi (IX-XIII asrlar)

Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va soliq tizimi o'zgarishlariga bo'lgan zarurat. Tohiriylar va Somoniylar davrlarida mavjud bo'lgan soliqlar va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, *Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlarida amal qilgan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari.*

Mo'g'ullar istilosi davrida soliqlar

Markaziy Osiyoni-mo'g'ullar tomonidan zabt etilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mo'g'ullar tomonidan joriy etilgan soliqlar: "Kalon", "Qop chur", "Shulsi", "El" va boshqalar. *Joriy etilgan soliqlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri.*

Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar

Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi, mamlakatning iqtisodiy hayoti. "Temur tuzuklari"da soliqlarning ifodalanishi. Temuriylar davrida soliqlarni hisoblash qoidalarining o'ziga xosligi, yangi erlarni o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan soliq imtiyozlari, soliq tizimini tarixan shakllangan mamlakatlarda undirilishi, soliq undirish usullarining xilma-xilligi soliq undirishda ulardan samarali foydalanish hisobiga muvaffaqiyatga erishilganligi. Savdo va hunarmandchilikni rivojlanishi va bunday faoliyatlarga joriy etilgan soliqlar. *Soliqlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

Shayboniyxon va xonliklar davrida soliqlar

Shayboniyxonning hokimiyatni egallashi va bu davrda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar. Markaziy Osiyoning xonliklarga bo'linib ketish siyosiy-iqtisodiy sabablari: Buxoro amirligi, Xorazm va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi va ularning iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar. Buxoro amirligi va xonliklar davrida amalda bo'lgan soliqlar, ularni hisoblash va undirish tartiblari.

Klassik iqtisodiy maktab vakillarining soliqlar borasidagi qarashlari va ularni G'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. *A. Smit, V. Petti va D. Rikardolarning iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi.* Klassik iqtisodiy maktabining namoyondalari va boshqalar iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi. G'arbiy Evropa mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi va soliqqa tortishning yangi ob'ektlarining ochilishi. Soliqlarning davlatlar iqtisodiy faoliyatiga ta'siri. Turli xil iqtisodiy qarashlarda soliqlar borasidagi fikrlarning o'xshashlik va farqli jihatlari.

Markaziy Osiyoda mustamlakachilik (Chor Rossiyasi) davrida soliq siyosati

Chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi iqtisodiy siyosati. 1917 yilga qadar Markaziy Osiyoda joriy etilgan soliqlar. Markaziy Osiyo hududida sanoat, temir yo'l va boshqa sohalarning rivojlanishi, soliqqa tortishdagi o'zgarishlar. *Chor Rossiyasining soliq siyosatiga mahalliy xalqning e'tibori, noroziliklar.*

Keynschilik, monetarizm, institutsionalizm va boshqa maktablarning iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi

Kapitalistik mamlakatlarni larzaga solgan buyuk turg'unlik davrining iqtisodiy qarashlardagi sifat o'zgarishlar. J.M. Keynsning "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida soliqlarning talqini. Yangi keynschilik g'oyalarida soliqlarning namoyon bo'lishi. Monetarizm kontseptsiyasida soliqlar borasidagi fikrlar. Institutsionalizm nazariyasida soliqlar borasidagi fikrlar, yangi iqtisodiy maktablar iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi.

Sobiq Ittifoq davrida soliq siyosati

Oktyabr to'ntarilishidan keyingi iqtisodiy siyosat. Sobiq Ittifoqda mavjud soliq'larga tanqidiy jihatdan yondashish. Kommunistik mafkura va soliqlar o'rtasidagi ziddiyat. *Sobiq Ittifoq davridagi soliq islohotlari.* 1917 yildan 1991 yilga qadar sobiq Ittifoqda soliq tizimi hamda soliq islohotlari.

Mustaqillik va soliq sohasidagi islohotlar

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi. Iqtisodiy islohotlar, soliq sohasidagi islohotlar. "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonun, "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi qonun va boshqa soliqqa doir me'yoriy hujjatlarning tarixiy ahamiyati. 1991-1994 yillardagi soliq islohotlari, 1995-1998 yillardagi soliq islohotlari. *Soliq kodeksi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati, soliq islohotlarining mamlakat iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI

"Soliq tarixi" fanining predmeti va vazifalari

"Soliq tarixi" fanining predmeti, o'rganish usullari va vazifalari. "Soliq tarixi"ni o'rganishdan maqsad. Fanning boshqa ijtimoiy-gumanitar va iqtisodni fanlar bilan o'zaro aloqasi. "Soliq tarixi" fanini ixtisoslik fan sifatida o'rganishning zaruriy omillari. Fanning ob'ektini o'rganishga xizmat qiluvchi manbaalar.

Soliqlarning paydo bo'lishi

Soliqlarni paydo bo'lishiga turtki bo'lgan asosiy sabablar: davlatchilikning shakllanishi, davlat xarajatlarining oshib borishi, jamiyat taraqqiyoti bosqichlari almashinuvi. Soliqlarning ilk ko'rinishlari, undirish usullari, shakllari, belgilari, jamiyat rivojlanishiga ta'siri. Soliqlar paydo bo'lishining mamlakatimiz xududidagi xususiyatlari.*

O'rta asrlargacha bo'lgan davrda soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi (V asrgacha)

Vatanimiz hududida ilk davlatchilik tuzilmalarining paydo bo'lishi va ulardagi soliqlar. Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatlar: Salavkiylar, Kushon va Parfiya davlatlari, Yunon-Baqtriya, Qadimgi Farg'ona podsholigi, davridagi soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi. Soliqlarni ushbu davlatlar ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

O'rta asrlar davrida soliqlarning rivojlanishi (V-VII asrlar)

Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va u jarayonda soliqlarning rivojlanishidagi xususiyatlari. Eftalitlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida soliqlar.* Turk hoqonligida soliqlar.

Arablar istilosi davrida soliqlarning rivojlanishi (VII-VIII asrlar)

Qur'oni Karimda mavjud iqtisodiy ko'rsatmalar. Mamlakatimiz hududining Arab istilochilari tomonidan zabt etilishi va soliqlar borasidagi o'zgarishlar.* Soliqlarning mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotiga ta'siri. Soliqlarning islom dinini targ'ib etishdagi roli.

Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va soliqlarning rivojlanishi (IX-XIII asrlar)

Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va soliq tizimi o'zgarishlariga zarurat. Tohiriylar va Somoniylar davrlarida mavjud bo'lgan soliqlar va ularning jamiyat

ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida soliqlar.

Mo'g'ullar istilosi davrida soliqlar

Markaziy Osiyoni mo'g'ullar tomonidan zabt etilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mo'g'ullar tomonidan joriy etilgan soliqlar: "Kalon", "Qopchur", "Shulsi", "El" va boshqalar. Joriy etilgan soliqlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar

Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi, mamlakat iqtisodiy hayoti. "Temur tuzuklari" da soliqlarning ifodalanishi.* Temuriylar davrida soliqlarni hisoblash qoidalarining o'ziga xosligi, yangi erlarni o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan soliq imtiyozlari, soliq tizimini tarixan shakllangan mamlakatlarda undirilishi, soliq undirish usullarining xilma-xilligi soliq undirishda ulardan samarali foydalanish hisobiga muvaffaqiyatga erishilganligi. Savdo va hunarmandchilikni rivojlanishi va bunday-faoliyatlarga joriy etilgan soliqlar.* Soliqlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri.

Shayboniyxon va xonliklar davrida soliqlar

Shayboniyxonning hokimiyatni egallashi va bu davrdagi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar. Markaziy Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishning siyosiy-iqtisodiy sabablari: Buxoro amirligi, Xorazm, Qo'qon xonliklarining tashkil topishi va ularning iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar. Buxoro amirligi va xonliklar davrida amalga bo'lgan soliqlar, ularni hisoblash va undirish tartiblari.

Klassik iqtisodiy maktab vakillarining soliqlar borasidagi qarashlari va ularni G'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati*

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi va uning vakillari U. Petti va fiziokratlarning soliqlar borasidagi qarashlari.* Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi, uning vakillari: A. Smit, D. Rikardoning iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi. Klassik iqtisodiy maktabning namoyandalari va boshqalarning iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi. G'arbiy Evropa mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi va soliqqa tortishning yangi ob'ektlarining ochilishi. Soliqlarning davlatlar iqtisodiy faoliyatiga ta'siri. Turli xil iqtisodiy qarashlarda soliqlar borasidagi fikrlarning o'xshashlik va farqli jihatlari.

Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoda mustamlakachilik (Chor Rossiyasi) davrida soliq siyosati

Chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi iqtisodiy siyosati.* 1917 yilga qadar markaziy Osiyoda joriy etilgan soliqlar. Markaziy Osiyo hududida sanoat, temir yo'l va boshqa sohalarning rivojlanishi, soliqqa tortishdagi o'zgarishlar. Chor Rossiyasining soliq siyosatiga mahalliy xalqning e'tibori, noroziliklar.

Keynschilik, monetarizm, institutsionalizm va boshqa maktablarning iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi

Kapitalistik mamlakatlarni larzaga solgan buyuk turg'unlik davrining iqtisodiy qarashlardagi sifat o'zgarishlar. J.M. Keynsning "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida soliqlarning talqini. Yangi keynschilik g'oyalarida soliqlarning namoyon bo'lishi.* Monetarizm kontseptsiyasida soliqlar borasidagi fikrlar. Institutsionalizm nazariyasida soliqlar borasidagi fikrlar, yangi iqtisodiy maktablar iqtisodiy qarashlarida soliqlarning namoyon bo'lishi.*

Sobiq Ittifoq davrida soliq siyosati

Oktyabr to'ntarilishidan keyingi iqtisodiy siyosat. Sobiq Ittifoqda soliqlarga tanqidiy jihatdan yondashish. Kommunistik mafkura va soliqlar o'rtasidagi ziddiyat.* Sobiq Ittifoq davridagi soliq islohotlari. 1917 yildan 1991 yilga qadar sobiq Ittifoqning soliq tizimi, soliq islohotlari.

Mustaqillik va soliq sohasidagi islohotlar

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi. Iqtisodiy islohotlar, soliq sohasidagi islohotlar, "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'grisida"gi qonun, "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida" gi qonun va boshqa soliqqa doir me'yoriy hujjatlarning tarixiy ahamiyati. 1991-1994 yillardagi soliq islohotlari, 1995-1998 yillardagi soliq islohotlari. Soliq kodeksi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati, soliq islohotlarining mamlakat iqtisodiy hayotiga ta'siri.*

4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR

"Soliq tarixi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish belgilangan:

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Diaproektor;
4. Kodoskop;
5. Grafproektor;
6. Internet saytlari:

- (e-mail: mail@finstat.ru)
- (e-mail: valeo@etel.ru)
- (<http://www.alpbook.ru/>)

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" shaklida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 foiz va undan yuqori foiz miqdorida ball to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) hisoblanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi -T.: Adolat, 2002.
3. I.A. Karimov O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. I.A. Karimov O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. Brizgalin A. Nalogi i nalogovoe pravo. -M.: Analitika press, 1999.
6. Nalogi i nalogooblojenie. Praktikum. Ucheb. pos.. Kolchin S. P. - M.: Finstatinform, 2000.
7. Yo'ldoshev T., Tursunov S. Soliqhuquqi. -T.: Moliya, 2000.
8. Shaulov D., Kan U. Soliq qonunchiligi asoslari. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.

9. Xvan L. Soliq huquqi -T.: Konsauditinform, 2000.
10. Yaxyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti -T.: F.G'ulom, 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida". Soliq to'lovchining jurnali 2000 y. (6-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish shkalasini takomillashtirish to'g'risida" gi 1999 yil 31 dekabrda farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi 2000 y (1 yanvar).
3. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari –T.: Akademiya, 2002 y.
4. Malikov T. Soliq tizimi: vaziyatga bir nazar. // Jamiyat va boshqaruv, № 2.
5. Yahyoev Q. Soliqlarning majburiylik printsiipi. // Soliq to'lovchilari jurnali № 9 1998.
6. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: 2000.
7. Yahyoev Q. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi –T.: Mehnat. 1998.
8. Yahyoev Q. Soliqqa tortish imtiyozlari kerakmi? // Soliq to'lovchining jurnali, 1998.
9. Shaulov D., Kan U. Soliq qonunchiligi asoslari –T.: 1999.
10. Akramov E., Toirov A. Ekonomicheskie reformi Respubliki Uzbekistan -M.: TOO. Lyuks-art. 1998.